

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2024-yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar

Masofaviy tarzda, videoaloqa orqali o'tkazilgan kengaytirilgan Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i A.Tashnazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Yig'ilishda, Navoiy viloyati statistika organlarida 2024-yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijrosi holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.

Bundan tashqari, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha maqsadli kompleks dasturlar monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistik ma'lumotlar tayyorlanib, har oyda Statistika agentligi va viloyat hokimligiga taqdim etib borildi.

Jumladan, Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2024- yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda **20 993,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davri bilan taqqoslaganda **7,8** foizga o'sdi.

Shuningdek, viloyat korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-mart oylarida **28,6** trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi **108,4** foizni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **2,4** trln. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,3** foizga yetdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2023- yilning mos davriga nisbatan (**228,0** foiz) o'sish kuzatildi. Viloyatda jami **1,4** trln. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **111,6** foizga teng bo'ldi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) **28 799** tani tashkil etib, ulardan **21 060** tasi yoki **73,1** foizi faoliyat ko'rsatmoqda. 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda **739** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **386** taga kam.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3,1** trln. so'mni, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,0** foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **2,6** trln. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **107,0** foizga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-mart oylarida **362,9** mln. AQSH dollarini,

jumladan eksport **253,8** mln. AQSH dollarini va import **109,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning 1-yanvar holatiga viloyat bo'yicha doimiy aholi soni **1 079,9** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **19,3** ming kishiga yoki **101,8** foizga o'sdi.

Yig'ilishda, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi va bo'limlarida 2024- yil 1- chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijrosi holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.